Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 1
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA MILLIY HUNARMANDCHILIKNING TRANSFORMATSION IMKONIYATLARI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

Javoxir Abduvoxidjon o'g'li Mahmudjonov*
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
✉ javoxirmahmudjonov1007@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada milliy hunarmandchilikning yoshlar ijtimoiy faolligi, bandligi, fuqarolik mas'uliyati, tadbirkorligi va milliy qadriyatlarini rivojlantirishdagi transformatsion imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar

ijtimoiy faollik, milliy hunarmandchilik, transformatsiya, yoshlar, ijtimoiy institut, qadriyat, ustoz-shogird, bandlik, tadbirkorlik, fuqarolik mas'uliyati, milliy o'zlik.

DOI: 10.5281/zenodo.21743389

Kirish. Bugungi kunda dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda iqtisodiy va madaniy integratsiyaning kuchayishi yoshlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni va faolligiga yangi talablarni qo'ymoqda. Jamiyat taraqqiyotining barqarorligi ko'p jihatdan yosh avlodning mehnatga munosabati, tashabbuskorligi, fuqarolik pozitsiyasi va milliy qadriyatlarga sodiqligi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan milliy hunarmandchilik an'analari yoshlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning muhim ijtimoiy-falsafiy omillaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Milliy hunarmandchilik asrlar davomida shakllangan moddiy va ma'naviy meros bo'lib, unda xalqning tarixiy tajribasi, mehnat falsafasi, estetik didi va ma'naviy qadriyatlari mujassamlashgan. Hunarmandchilik orqali yosh avlod nafaqat muayyan kasbni egallaydi, balki mehnatsevarlik, mas'uliyat, sabr-toqat, jamoada ishlash, tashabbuskorlik va milliy o'zlikni anglash kabi ijtimoiy fazilatlarni ham o'zida shakllantiradi. Shu jihatdan hunarmandchilikni faqat iqtisodiy faoliyat turi sifatida emas, balki shaxsni ijtimoiylashtiruvchi va fuqarolik faolligini rivojlantiruvchi ijtimoiy institut sifatida baholash zarur.

So'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlar ajratish, ustoz-shogird an'analarini rivojlantirish hamda milliy hunarmandchilikni zamonaviy iqtisodiy munosabatlarga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlar yoshlarning bandligini ta'minlash bilan bir qatorda ularning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini kuchaytirishga ham xizmat qilmoqda.

Gazeta materiallari tahlili shuni ko'rsatadiki, hunarmandchilik bilan shug'ullanayotgan yoshlar nafaqat o'zlarini ish bilan ta'minlamoqda, balki boshqa tengdoshlarini ham band etish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ustoz-shogird an'analarini davom ettirish va mahalla ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish orqali jamiyat rivojiga munosib hissa qo'shmoqda. Mebel ishlab chiqarish, do'ppido'zlik, qurilish bezaklari tayyorlash kabi yo'nalishlarda faoliyat yuritayotgan yoshlarning tajribasi milliy hunarmandchilikning transformatsion salohiyatini yaqqol namoyon etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi milliy hunarmandchilikning yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi transformatsion imkoniyatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish, uning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini ochib berish hamda ushbu yo‘nalishni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsaddan kelib chiqib, avvalo milliy hunarmandchilikning yoshlar ijtimoiy faolligini shakllantirishdagi ijtimoiy-falsafiy asoslarini tahlil qilish zarur. Chunki yoshlarning mehnat faoliyati, tadbirkorlik tashabbuslari, kasbiy o‘zini namoyon qilishi va fuqarolik mas’uliyatining shakllanishi ko‘p jihatdan milliy qadriyatlar hamda hunarmandchilik an’analari bilan uzviy bog‘liqdir.

Ijtimoiy falsafada ijtimoiy faollik shaxsning jamiyat hayotida ongli ravishda ishtirok etishi, mavjud ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan tashabbuslari, mas’uliyati va amaliy faoliyati bilan tavsiflanadi. Shaxsning ijtimoiy faolligi faqat siyosiy yoki jamoatchilik faoliyati bilangina emas, balki uning mehnatga munosabati, iqtisodiy tashabbuskorligi, kasbiy o'zini namoyon qilishi, milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirishdagi ishtiroki orqali ham namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan milliy hunarmandchilik yoshlarning ijtimoiy faolligini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Milliy hunarmandchilikni ijtimoiy institut sifatida tavsiflovchi asosiy jihat shundaki, u bir vaqtning o‘zida iqtisodiy, madaniy, ma'naviy va tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Hunarmandchilik faoliyatiga jalb etilgan yosh avlod mehnat qilishni, o‘z daromadini halol mehnat orqali topishni, jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglashni hamda o‘z kasbiga nisbatan sadoqatni o‘rganadi. Natijada ijtimoiy faollikning iqtisodiy, ma‘naviy va fuqarolik komponentlari o‘zaro uyg‘un holda shakllanadi.

Bugungi kunda yoshlar ijtimoiy faolligini baholashda ularning tadbirkorlik tashabbuslari, yangi ish o‘rinlarini yaratishi, jamoatchilik hayotidagi ishtiroki, milliy qadriyatlarni asrab-avaylashi hamda o‘z tengdoshlarini foydali mehnatga jalb eta olishi muhim mezonlardan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur mezonlarning deyarli barchasi milliy hunarmandchilik faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Empirik kuzatuvlar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. “Yoshlar ovozi” gazetasida Qashqadaryo viloyatining Mirishkor tumanida yashovchi yosh tadbirkorlar Sardor va Eldor Shodmonqulovlarning mebel ishlab chiqarish sexini tashkil etgani, imtiyozli kreditlardan samarali foydalanib, o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygani hamda ikki nafar ishsiz yoshni doimiy ish bilan ta’minlagani haqida ma’lumot berilgan. Bundan tashqari, ularning kelgusida “Yoshlar daftari”ga kiritilgan tengdoshlarini ham ish bilan ta‘minlashni maqsad qilgani alohida ta’kidlangan [1, B.1-3].

Mazkur holatni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, yoshlarning ijtimoiy faolligi faqat o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish bilangina cheklanmayotgani, balki ijtimoiy mas'uliyat, hamkorlik va jamoaviy manfaat tamoyillari bilan uyg‘unlashayotganini ko‘rish mumkin. Bunda hunarmandchilik iqtisodiy daromad manbai bo‘lish bilan birga, yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini mustahkamlovchi hamda ularni mahalla taraqqiyotining faol subyektiga aylantiruvchi institut vazifasini bajarmoqda. Yoshlarning o'z tashabbusi bilan yangi ish o‘rinlari yaratishi, tengdoshlarini foydali mehnatga jalb etishi va mahalla rivojiga hissa qo‘shishi hunarmandchilikning transformatsion imkoniyatlari amaliyotda namoyon bo‘layotganidan dalolat beradi.

Ayniqsa, mazkur maqolada aka-uka tadbirkorlarning otasidan meros bo‘lib qolgan hunarni zamonaviy ishlab chiqarish bilan uyg‘unlashtirgani, vodiy hunarmandlari bilan kooperatsiya asosida ishlayotgani va kelgusida ushbu hunarni yosh avlodga o‘rgatishni maqsad qilgani milliy hunarmandchilikning transformatsion mohiyatini namoyon etadi. Chunki bu yerda an’ana saqlanib qolayotgan bo‘lsa-da, uning iqtisodiy va ijtimoiy mazmuni zamonaviy ehtiyojlarga mos ravishda yangilanmoqda. Demak, milliy hunarmandchilik bugungi taraqqiyot bosqichida an’anaviy kasb faoliyatidan zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omiliga aylanib bormoqda.

Milliy hunarmandchilikning transformatsion xususiyati, avvalo, uning yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash, tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish va fuqarolik mas’uliyatini mustahkamlashga xizmat qilayotganida namoyon bo’ladi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar, kooperatsiya va bozor munosabatlarining hunarmandchilikka kirib kelishi uning mazmunini boyitib, raqobatbardoshligini oshirmoqda.

Milliy hunarmandchilikning yana bir muhim funksiyasi yoshlarni kasb tanlashga ongli ravishda yo‘naltirishdir. “Toshloq tongi” gazetasida kasb-hunar maktablari faoliyati, o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatiga mos ravishda kasb tanlashi, ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot o‘tashi hamda malakali ustozlar

rahbarligida kasb sirlarini egallashi haqida batafsil yoritilgan [2, B. 2-3]. Gazeta materialida ta'kidlanganidek, yoshlarning nazariy bilimni amaliy tajriba bilan uyg'unlashtirishi ularning mehnat bozoriga moslashuvchanligini oshirmoqda.

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan kasb tanlash jarayoni shaxsning o'zini anglash, ijtimoiy mavqeini belgilash va jamiyatdagi o'rnini topish jarayonidir. Kasb-hunar ta'limining hunarmandchilik bilan uyg'unlashuvi esa yoshlarni passiv kuzatuvchidan faol ishlab chiqaruvchi va bunyodkor shaxsga aylantiradi. Mehnatning qadriyat sifatida qaror topishi esa ularning ijtimoiy faolligini yanada kuchaytiradi.

Milliy hunarmandchilikning transformatsion imkoniyatlari ustoz-shogird an'anasida ham yaqqol namoyon bo'ladi. "Toshloq tongi" gazetasida Mahfuzaxon Ma'murovaning do'ppido'zlik hunarini onasidan o'rganib, keyinchalik farzandlari va shogirdlariga o'rgatayotgani, shu orqali milliy qadriyatlarning uzviy davomiyligini ta'minlayotgani yoritilgan[3. B. 3]. Bu holat ustoz-shogird tizimi nafaqat kasbiy malakani, balki mehnat etikasi, mas'uliyat, sabr-toqat va milliy o'zlikni anglash kabi ijtimoiy qadriyatlarni ham yangi avlodga yetkazayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, gazeta sahifalarida Parpixon Abdurahmonovaning iroqi do'ppido'zlik orqali o'zini band qilgani, Zuxriddin Ismoilovning esa zamonaviy qurilish bezaklari ishlab chiqarish bilan bir qatorda yoshlarni kasbga o'rgatayotgani haqidagi ma'lumotlar [4. B. 2] hunarmandchilikning jamiyatdagi ijtimoiy integratsiya, bandlik va innovatsion rivojlanishni ta'minlashdagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Demak, gazeta materiallarining ijtimoiy-falsafiy tahlili milliy hunarmandchilikning bugungi kunda nafaqat tarixiy-madaniy merosni saqlash vositasi, balki yoshlarning ijtimoiy faolligi, iqtisodiy mustaqilligi, fuqarolik mas'uliyati va innovatsion salohiyatini rivojlantiruvchi transformatsion institut sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi. Shu bois milliy hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash va uni zamonaviy taraqqiyot talablariga mos ravishda rivojlantirish yoshlar siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilishi maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Tahlil natijalari milliy hunarmandchilik yoshlar ijtimoiy faolligini yuksaltirishda muhim ijtimoiy institutlardan biri ekanligini ko'rsatdi. U yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, mehnat madaniyatini shakllantirish, fuqarolik mas'uliyatini kuchaytirish hamda milliy qadriyatlarning avlodlar davomiyligini ta'minlashda muhim o'rin egallaydi.

Gazeta materiallarining ijtimoiy-falsafiy tahlili hunarmandchilik bilan shug'ullanayotgan yoshlar nafaqat o'z bandligini ta'minlayotgani, balki yangi ish o'rinlari yaratish, tengdoshlarini kasb-hunarga jalb etish va mahalla ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish orqali jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shayotganini ko'rsatdi. Bu esa milliy hunarmandchilikning yoshlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishdagi transformatsion salohiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, yoshlarni milliy hunarmandchilik faoliyatiga kengroq jalb etish, kasb-hunar ta'limi muassasalari bilan hunarmandchilik subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ustoz-shogird an'analarini institutsional qo'llab-quvvatlash hamda yosh hunarmandlarning tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarida hunarmand yoshlarning ilg'or tajribalarini keng yoritish va ommalashtirish milliy hunarmandchilikning yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning ijtimoiy-falsafiy asoslarini yanada mustahkamlash, milliy hunarmandchilikning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi transformatsion rolini kuchaytirish hamda yoshlarning ijtimoiylashuvi va fuqarolik faolligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, milliy hunarmandchilikni yoshlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning strategik omillaridan biri sifatida ilmiy asosda tadqiq etish va amaliyotga keng joriy etish ijtimoiy taraqqiyotning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Komilova S. Sardor va Eldor: Hunarmand aka-uka // Yoshlar ovozi. 2024-yil, 21-avgust soni #33 (16635)
2. Мўминов А. Ҳунарли инсон ҳор бўлмас // Toshloq tongi. 2023-yil 31-mart soni. 9 (72697).

3. Тожибоева М., Саломова Д. Дўппиларда миллийлик акси // Toshloq tongi. 2023-yil 31-mart soni. 9 (72697).
4. Раҳимова Ш. Ҳунар беминнат хазина // Toshloq tongi. 2023-yil 27-may soni. № 15 (72703)